

## **XOR BO'LIB KUYLASHNING ASOSIY VAZIFALARI**

**Tursunov Xurshid Abduraimovich**  
Termiz davlat universiteti,  
“Musiqqa ta’limi” kafedrası o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada “Xor bo'lib kuylashning asosiy vazifalari” mavzusi asosida xor san'ati janrlarining yangilanish uslublari, xalqona va milliy kuylashning zamonaviy uslub va usullarini qo'llashni takomillashtirish, umumta'lim maktabi o'quvchilarining dars va darsdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida vokal-xor jamoalarini tuzishdagi vazifalar to'g'risida yoritildi.

**Kalit so'zlar:** Vokal-xor, filarmoniya, opera, raqs, san'at, kompozitor, bastakor, xonanda, ashula, musiqa, qo'shiq.

Musiqa san'ati yoshlarning estetik tuyg'ularini tarbiyalash, ularni go'zallik dunyosiga olib kirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bois xor bo'lib kuylash, ashula aytish xonandalar, ayniqsa, bolalarga ommaviy musiqiy ta'lim berishni yuqori bosqichga chiqarishni talab etadi. Har bir bola, u keyinchalik qaysi kasbni tanlashidan qat'iy nazar, musiqa san'atini o'rganishi, undan atroflicha boxabar bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev har bir viloyatda filarmoniya tashkil etib, ular qoshida kasbiy professional jamoalar qatorida bolalar raqs, xor va vokal ansambllari tuzish lozimligini ta'kidladilar. Bu e'tibor sohani zamon talablariga hamohang rivojlantirishga undasa, kelgusida yosh avlodga ijro mahorati, ishlash uslublari, repertuar yaratish bo'yicha mukammal saboq berish masalasi bugungi kun mutaxassislarini ilmiy izlanishga chorlaydi.

O'zbekistonda professional xor san'ati eng yangi san'at turlaridan biridir. Dastlab havaskorlik darajasida madaniyatimizga kirib kelgan bo'lsa-da, davr talabi bilan ushbu ijrochilik yo'nalishiga ham e'tibor kuchaydi. Professional xor jamoalari tuzish davlat tomonidan amalga oshirila boshlandi. Avvalambor 1952-yilda O'zbek filarmoniyasi qoshida birinchi professional xor kapellasi, maxsus ta'lim jarayonini o'tagan mutaxassislardan tuzildi. Ko'p ovozli yangi davr musiqa asarlarini ijro etish bunday jamoalardan mahoratni talab etar edi. Kapella, deb nomlanadigan bu musiqiy badiiy jamoaga iste'dodli xormeyster S.Valenkov rahbar etib tayinlangan. Bu jamoaga keyinchalik A.Sultonov, R.Xublarov, X.Vohidov, A.Hamidovlar rahbarlik qilishdi. Hozirda bu jamoaga D.Jdanov boshchilik qilmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston xalq artisti Ahad Hamidov rahbarlik qilgan yillarda kapellaning eng gurkiragan, dunyo kezgan davri bo'ldi. Dasturlaridan jahon klassik asarlari hisoblangan – oratoriyalar, kantatalar, messalar, oda va qasidalar ilk bor o'zbeklar diyorida jonli ijro etildi. Shu bilan birga turli xalqlar qo'shiqlari me'yoriga yetkazilib, qayta ishlanib tinglovchilar hukmiga havola etildi. Mutal Burhonov yaratgan xor asarlari, ayniqsa, a kapella qo'shiqlari tinglovchilar auditoriyasining kengayishiga olib keldi. Kompozitor o'z asarlarini ushbu jamoa bilan hamkorlikda ijod etdi. Uning «Yorlarim», «Go'zal qizga», «Sayyora», «Zarragul», «Bibigul», «Sari ko'hi baland» kabi o'nlab qayta ishlangan, sayqal berilgan a kapella asarlari endilikda bu janrning mumtoz namunalariga aylanib qoldi. Professional xor ijrochiligi bilan uzviy bog'liq bo'lgan, asosiy janr hisoblangan – a kapella janri shakllandi. Professional xor ijrochiligida milliylikni saqlab qolish maqsadida O'zbekiston teleradiosi qoshida ham 1960-yili xor jamoasi tashkil etildi. Unga atoqli dirijor, iste'dodli kompozitor, xor musiqasi bilimdoni, O'zbekiston xalq artisti Botir Umidjonov rahbar etib tayinlangan. U nafaqat rahbar edi, balki jamoaning dastur yaratuvchisi ham edi. Istiqbolli reja asosida ko'p yillar jamoaga beminnat rahbarlik

qilgan. Jamoasi «ijodiy laboratoriya»ga aylangan bu zahmatkash ijodkor yuzlab xalq qo'shiqlarini qayta ishlab, yangi, original asarlarni yaratib xor san'atini xalqimizga manzur eta oldi. «Diliman», «Qaro soch», «Ililla yor», «Og' o dorom», «Gal bari», «Chamanda gul», original asarlar – «Dilbarume» xor syuitasi, «Segoh», «Chorgoh», «O'zganacha» kabilar uning qalamiga mansub. Professional xor ijrochiligi O'zbekistonda XX asrning 70-yillarida to'la shakllandi, deb ishonch bilan ta'kidlash mumkin. Shu qisqa davr mobaynida yangi san'at turi, uning ijrochiligi milliy ijodkorlar va ijrochilar tomonidan o'zlashtirildi. Endi mutasaddilar oldida jahonni zabt etish borasida yangi maqsad va vazifalar turardi.<sup>1</sup>

Umumta'lim maktablarining aksariyatida «Musiqqa madaniyati» darslarida o'quvchilarga asosan nazariy bilim berilishi tufayli kuy-qo'shiqlarning jonli ijrosini tinglash, matn va musiqani tahlil etish, qo'shiqlarni xor bo'lib toza kuylash, cholg'u sozlarini chalib o'rganish, turli havaskorlik to'garaklari, ya'ni amaliy bilim olishga sharoit va muhit talab darajasida emas. O'quvchilar bilan o'tiladigan soat hajmi juda oz - haftasiga 1 soat. Fikrimizcha, yuqoridagi kamchiliklar sabab umumta'lim maktablarida bolalar vokal-xor jamoalari kamayib bormoqda. Bu borada xor san'ati ham katta o'rin tutishini e'tiborga olib bajariladigan vazifalarga to'xtalamiz:

- xor san'ati janrlarining yangilanish uslublari, o'zbek kompozitorlari xor ijodiyotida yaratgan asarlarining mohiyati, musiqiy tili, ijro yo'nalishi, darajasi, sohaga oid amalda mavjud yangi tajribalar tahlil va tadqiq etilishi lozim;

- xalqona va milliy kuylashning zamonaviy uslub va usullarini qo'llashni takomillashtirish;

- o'zbek kompozitorlari yaratgan asarlarning zamonaviy qahramon obrazlarini professional xor jamoalari ijrosida teatrlashtirilgan (sahnalashtirilgan) holda talqin va targ'ib qilish;

- umumta'lim maktabi o'quvchilarining dars va darsdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida vokal-xor jamoalarini tuzib, ularda yuqori malakali, professional faoliyat olib boruvchi to'garak rahbari, pedagog-xormeyster uchun shtat birligi, zarur sharoitlar (maxsus xona, texnika, musiqqa sozlar, fortepiano, audio-video yozuvlar) yaratish.

Eng muhim masala - bolalar va yoshlar qanday mavzudagi qo'shiqlarni kuylashlari lozim? Bunga shoir, kompozitor, hamda pedagog-ijodkorlar mas'uliyat bilan qarashlari zarur.

Har bir yaratilgan qo'shiq yashab turgan zaminimizni madh etishi, ezgulikka chorlashi, do'stlik, mardlikka undashi va baxtli bolalik hissini uyg'otishi lozim. Lekin ba'zida ma'no-mazmuni sayoz, musiqasi yoqimsiz, bolalarning yoshiga mos bo'lmagan, vaqtincha huzur bag'ishlaydigan «ermak qo'shiqlar» ommalashib, bolalar ongiga salbiy ta'sir yetkazmoqda. Ayniqsa, estrada janrida yengil-elpi, so'zlari bachkana qo'shiqlar soni ko'payganligi barchamizni afsuslantiradi. Ijodkorning millati, tilidan qat'iy nazar go'zal, ma'noli kuy-qo'shiq o'z muxlisini tez topadi. Jamoa ijrosida bu qo'shiqlarning tarbiyaviy ahamiyati, ta'sirchanligi yanada ortadi.

Qalbi go'zallikka oshno insonlargina musiqani anglaydi. Bunday xususiyatni bolalikdan tarbiyalash muhimligini nazarda tutib, musiqiy ta'limni umumta'lim maktablari «Musiqqa madaniyati» darslarida, maktabgacha ta'lim muassasalarining mashg'ulotlarida olib borish taqozo etiladi.

O'zbekiston davlat filarmoniyasi huzuridagi «Bulbulcha» bolalar xor va raqs ansambli, «Tomosha», «Tantana» teatr-studiyalari, «Sevinch», «Orom», «Marvarid» kabi ashula va raqs ansambllarining faoliyati ham tahsinga sazovor. Yurtimizda har bir bolajonni san'atning bir-ikki turini 3-4 yoshidan boshlab o'zlashtirishi, ilm olishi, o'smirlik davridan boshlab hunar o'rganishi, axloqiy qonun-qoidalarni egallashi, hayoti, mehnat faoliyati davomida

<sup>1</sup>G. MANSUROVA "XORSHUNOSLIK VA XOR JAMOALARI BILAN ISHLASH USLUBIYOTI" Madaniyat, san'at kollejlari va akademik litseylar uchun o'quv qo'llanma. Toshkent «Yangi nashr» 2008y.

yaratuvchanlik bilan shug'ullanishi uchun biz kattalar - ota-onalar, soha olimlari, mutaxassislar, ustoz-murabbiylar birdek mas'ulmiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.Tursunov . “Chorsha baxshi kuylasa”.Ma'naviy xayot. tarixiy-falsafiy ma'naviy-marifiy ilmiy ommabop jurnal-Toshkent №4/2021.12.10. 106-107 betlar
2. Tursunov X. A LOOK AT THE HISTORY OF UZBEK NATIONAL MUSIC. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science (USA),2021.-№6.(Global Impact Factor – 0,564;Scientific Indexing Services –0,912; International Society for Research Activity – 1,344)
3. Tursunov, J., & Tursunov, X. (2021). A LOOK AT THE HISTORY OF UZBEK NATIONAL MUSIC. Theoretical & Applied Science, (6), 683-687.
4. URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=46265112>
5. Uzluksiz ta'lim tizimi internet saytlari; [uz.m.wikipedia.org](http://uz.m.wikipedia.org)
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'lishidan <http://uzembassy.kz>
7. Choriyev, B. B. (2019). Ideological bases for the modernization of Uzbek folk instruments. ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (80), 83-87.
8. URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=42657401>
9. DOI: 10.15863/TAS.2019.12.80.17
10. 7. Choriyev, B. (2021). BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARI HAMDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUAASSASALARI INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.
11. 8. G. MANSUROVA “XORSHUNOSLIK VA XOR JAMOALARI BILAN ISHLASH USLUBIYOTTI” Madaniyat, san'at kollejlari va akademik litseylar uchun o'quv qo'llanma. Toshkent «Yangi nashr» 2008y.
12. 9. Choriyev, B. (2021). CONTENT AND LEVEL OF COMPETENCE OF MUSIC CULTURE LESSONS IN SECONDARY SCHOOLS.
13. 10. Choriyev, B. (2021). UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI KAMCHILIKLAR VA MUAMMOLAR.